

Konsalting xizmatlarini ko'rsatish va statistik ma'lumotlarni taqdim etish uchun

20- sonli ShARTNOMA

Toshkent shahri

2022 y. "12" 01

Toshkent shahar statistika boshqarmasi nomidan O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistikasi to'g'risida" 2021-yil 8-avgustdagi O'RQ-707-son Qonuni hamda Boshqarma nizomi asosida ish ko'ruvchi, keyinchalik "Bajaruvchi" deb yuritiluvchi, boshqarma boshlig'i birinchi o'rinbosari Sh.E.Umidov bir tomondan,

Madat Hojizliq nomidan
(mazkur Shartnoma bo'yicha haq to'lovchi yuridik shaxsning nomi)

Nizom asosida ish ko'ruvchi, keyinchalik "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi T. Abdullayev
(Ustav, Nizom, ishonchnoma) (F.I.O., lavozimi)

ikkinchi tomondan mazkur Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. ShARTNOMA MAVZUSI

- 1.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ning talabiga binoan ushbu Shartnomaning 1.2.- bandida ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatadi, "Buyurtmachi" esa ushbu xizmatlarga haq to'lash majburiyatini oladi.
- 1.2. "Bajaruvchi" quyidagi xizmatlarni ko'rsatish majburiyatini oladi:
 - a) Ko'rsatma va maslahat xizmatlarini ko'rsatish;
 - b) Statistik hisobotlarning barcha shakllarini to'g'ri tayyorlashda yordam berish;
 - d) Tegishli davr uchun statistik ma'lumotlarni taqdim etish.
- 1.3. Xizmatlarni ko'rsatish muddati:
 - 1.3.1. "Bajaruvchi" har oyda (chorakda) yillik hisobotni taqdim etilgunga qadar tegishli hisobot davri uchun barcha statistik shakllar bo'yicha hisobotlarni topshirish muddati tugashidan oldin ma'lumot va xizmatlarni etkazib berishni o'z zimmasiga oladi. "Bajaruvchi" xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ishlarni muddatidan oldin bajarish huquqiga ega.
 - 1.3.2. Xizmatlar "Buyurtmachi" yoki uning vakolatli vakili tomonidan ish (xizmat)ning bajarilishi to'g'risidagi dalolatnoma, shuningdek hisob-faktura imzolanganidan keyin ko'rsatilgan deb hisoblanadi

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 2.1. "Bajaruvchi" quyidagilarga majbur:
 - 2.1.1. Xizmatlarni tegishli sifat bilan ta'minlaydi.
 - 2.1.2. Xizmatlarni ushbu Shartnomaning 1.3.- bandida belgilangan muddatda to'liq taqdim etadi.
 - 2.1.3. Agar xizmat ko'rsatish jarayonida "Bajaruvchi" ish sifatini yomonlashtirgan holda shartnoma shartlaridan chetga chiqsa, "Buyurtmachi"ning iltimosiga binoan, aniqlangan barcha kamchiliklarni 1 (bir) ish kuni ichida bepul tuzatadi.
- 2.2. "Buyurtmachi" quyidagilarga majbur:
 - 2.2.1. Ushbu Shartnomaning 3.1.- bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha 100 foiz oldindan to'lovni amalga oshiradi.
 - 2.2.2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi orqali pul mablag'larini o'tkazadigan tashkilotlar 30 foiz oldindan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan 70 foizini hisob-faktura asosida to'laydi.
- 2.3. "Buyurtmachi" quyidagi huquqlarga ega:
 - 2.3.1. Vaqti-vaqti bilan "Bajaruvchi" tomonidan bajarilayotgan ishlarning borishi va sifatini uning faoliyatiga aralashmagan holda tekshirib turish.

3. ShARTNOMA QIYMATI VA HISOB-KITOB TARTIBI

- 3.1. Tomonlarning kelishivuga binoan ushbu Shartnomaning narxi va qiymati: (12 soat) 1 035 469,20 (bir million o'ttiz besh ming to'rt yuz oltmish to'qqiz) so'm 20 tiyin. QQSni hisobga olgan holda. Ish va xizmatlar narxining o'zgarishi munosabati bilan shartnoma miqdori O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o'zgarishi mumkin. "Buyurtmachi"ga xizmatlar narxining o'zgarishi to'g'risida darhol "Bajaruvchi" xabar beradi.
 - 3.1.1. "Buyurtmachi" tomonidan "Bajaruvchi"ga Shartnomaning qiymati ushbu Shartnomada ko'rsatilgan "Bajaruvchi"ning hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 4.1. Shatnoma taraflarining javobgarligi O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" 1998- yil 29- avgustdagi O'RQ-670-1-son Qonuni bilan tartibga solinadi.
- 4.1.1. Ushbu Shartnomaning 3.1.- bandida ko'rsatilgan xizmatlar to'lovlari muddatini buzganligi uchun, yuqorida qayd etilgan Qonunning 32- moddasiga binoan, "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga Shartnoma qiymatining 15 foizi miqdorida hamda har bir kechiktirilgan kun uchun Shartnoma qiymatining 0,4 foizi miqdorida jarima to'laydi, bunda muddati o'tgan to'lovlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.
- 4.1.2. Tomonlarning ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amaldagi fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.
- 4.1.3. Jarima to'lash tomonlarni o'z majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkoni boricha tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.
- 5.1.1. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish mumkin bo'lmagan taqdirda, ular amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda hal qilinadi.

6. FORS-MAJOR SHARTLARI

- 6.1. Qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni o'zgarishi yoki butunlay bekor qilinishi, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar natijasida tomonlar o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun ushbu shartnomaning shartlarini bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

7. YAKUNIY QOIDALAR

- 7.1. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda tuzilgan bo'lsa va tomonlarning bunga vakil qilingan vakillari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy va mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu Shartnomaga ilovalar va qo'shimchalar uning ajralmas qismini tashkil etadi. Har bir tomon bir oy ichida boshqa tomonga bir tomonlama chiqish niyati borligini e'lon qiladi.
- 7.1.1. Mazkur Shartnoma uni barcha tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022- yil 31- dekabrga qadar amalda bo'ladi.
- 7.1.2. Mazkur Shartnoma har bir tomon uchun bir nusxadan ikki nusxada tuzildi. Barcha nusxalar o'xshash va bir xil yuridik kuchga egadir.

8. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

Bajaruvchi

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Manzil: Toshkent shahar A. Temur ko'chasi, 11-uy

Telefon: 71-203-80-03, 71-203-88-37

h/r: 20210000500127076001

Bank nomi: Toshkent shahar Trastbank XA banking
bosh ofisi

STIR: 201052784

IFUT: 84119

MFO: 00491

M.O':



Buyurtmachi

Manzil:	УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ СОЛИҚ КЎМИТАСИ ХУЗУРИДАГИ КАДАСТР АГЕНТЛИГИ
Telefon:	г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Чопонота кв "Ц" ОКЭД: 84111 ИНН: 205 471 782
h/r:	Л/с: 400110860262947049100186001
Bank nomi:	Р/с: 2340 2000 3001 0000 1010 В РКЦ ГУ ЦБ РУз ОПЕРУ Казначейства Министерства Финансов РУз
STIR:	МФО: 00014 ИНН: 201 122 919

STIR:

IFUT:

MFO:

M.O':

